

## NOSIR BUXORIY IJODIDA IRFONIY ISTILOH VA TIMSOLLAR

**Ergash Ochilov**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy  
xodimi, filologiya fanlari nomzodi,*

*E-mail: [e-ochilov@mail.ru](mailto:e-ochilov@mail.ru).*

*Tel: [+998946204764](tel:+998946204764)*

***Annotatsiya.** Maqolada Nosir Buxoriy g‘azallarida keng qo‘llangan irfoniylar va timsollarning Olloh – Olam – Odam munosabatlarining tasavvufiy talqinlari, ilohiy ishq tarannumi va komil inson ta’rifida bajargan badiiy vazifalari xususida fikr yuritilib, tasavvuf va she’riyatning bir-biriga ilhombaxsh ta’sirining ba’zi qirralari ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** tasavvuf, ta’sir, istiloh, timsol, g‘azal, tashbeh, talqin.*

Ma’lumki, tasavvuf adabiyotida ikki yo‘nalish mavjud: tasavvuf dunyoqarashi va g‘oyalari targ‘ibiga bag‘ishlangan namunalar hamda tasavvuf ta’sirida ilohiy ishq avj pardalarda tarannum etilgan va inson kamoloti masalalari keng ifodasini topgan asarlar. Bularning birinchisiga shayx-shoirlar va mutasavvif adiblar ijodi, ikkinchisiga deyarli butun Sharq mumtoz so‘z san’ati misol bo‘la oladi.

Temuriylar davri fors-tojik adabiyotining taniqli namoyandalaridan bo‘lgan Nosir Buxoriy (1310–1320 – 1379–1388) devonida ham azal, alast, may, mayxona, soqiy, mutrib, mug‘, mug‘bacha, piri mug‘on, dayr, xarobot, xaroboti mug‘on, fano, faqr, vahdat, oyina, rind, raz qizi, but, butxona (butkada), savmaa, zunnor, sohibnazar, ahli dil, zohid, tabib, faqih, muhtasib, voiz, qosid, surush, obi hayot, samo‘, sabo, dog‘, o‘zlik, kimiyo, parda (hijob), nay, oyina, oyinai jahonnamo (getinamo), jomi Jam kabi irfoniylar, haqiqat va majoz, adam va vujud, sham va parvona, aql va ishq, aql va ko‘ngil, gul va bulbul, ganj va vayrona, shoh va gado, quyosh va zarra, qatra va dengiz, kufr va iymon, surat va ma’no, jon va jonon, somon va kahrabo singari tasavvufiy timsollar juftligining nazmiy talqinlarini ko‘rish mumkin.

Bu buyuk hamyurtimiz Shoh Nosir va Darvesh Nosir nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Ota-bobolari mashhur diniy ulamolar bo‘lgan bo‘lajak shoir Buxoroda tahsil olib, islomiy ilmlarni chuqur o‘qib-o‘zlashtirganidan uning yirik ulamo bo‘lishini bashorat qilishgan. Chunki Buxoro va Balxda shar’iy ilmlarda unga teng keladigan kishi topilmagan. Lekin u darveshlik yo‘lini tanlab, umri asosan sayru sayohatda o‘tgan. Mashhad, Hirot, Tabriz, Bag‘dod, Ardabil, Damashq, Iroq, Shom, Najaf, Makka, Madina, Shirvon, Shamohi, Hindiston, Isfahon, Sabron, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi Sharqning ko‘plab mashhur shaharlarini kezib chiqqan. Haj amallarini ado etgan.

Nosir Buxoriyning bu maqsadini tasavvuf yo‘liga kirishi va ilohiy haqiqatni izlashi bilan bog‘lashadi. Bu haqda uning o‘zi g‘azallaridan birida men avval islom ahli rahbari edim – oqibat mutrib so‘zi meni yo‘ldan urdi deb yozadi:

*Man avval rahbari islom budam,*

*Ba oxir qavli mutrib rohi man zad* [Buxoroiy N. 3:147].

Mutrib – cholg‘uvchi, qo‘shiqchi, mug‘anniy. Tasavvufda oriflar dilini ramzlar kashfiyu haqiqatlar bayoniga to‘ldiradigan, fayz yetkazuvchi va targ‘ib qiluvchilarni mutrib deydi. Rabboniy olamdan ogoh qiluvchilar va komil pirlarga ham ishora qilinadi. Uning kuyi – ma‘rifat, qo‘shig‘i esa – haqiqat.

Nosir Buxoriy Hofiz Sheroziyga ergashib, iroqiy uslubda g‘azallar bitgan. Uning Sa‘diy Sheroziyga ham ixlosi nihoyatda katta bo‘lgan va donishmand shoirni ijod yo‘lidagi ustozlaridan deb bilgan. Nosir Buxoriy Kamol Xo‘jandiy, Hofiz Sheroziy, Salmon Sovajiy, Xoju Kirmoniy, Ubayd Zokoni kabi zabardast g‘azalnavislar qatorida turadi. U, ayniqsa, taniqli fors-tojik shoiri Salmon Sovajiy bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan. Tazkiralarda ularning o‘zaro mushoiralari keltiriladi (Ali Safiy. 1:83–84).

Ko‘p yillardan buyon Nosir Buxoriy hayoti va ijodi bilan shug‘ullanib kelayotgan S.Qurbonovning yozishicha esa, shoirning 10 ming baytdan ortiq she‘riy merosi saqlanib qolgan [Qurbonov S. 12:19]. Qasidalarining o‘zi 74 ta bo‘lib, 2455 baytdan iborat. Tarkibband (6 ta), tarje‘band (4 ta), musammat (4 ta), qit‘a (12 ta) va masnaviyari (2 ta) 832, g‘azallari 4586, ruboiy, dubaytiy va fardlari 66, “Hidoyatnoma” masnaviysi 583 baytni tashkil etadi.

Davlatshoh Samarqandiyning ma‘lumot berishicha, Nosir Buxoriy fozil va darvesh kishi bo‘lib, she‘rlari holdan xoli emas va so‘zlaridan dilga faqr hidi yetadi. Darveshlik xirqasida sayohat qilib, kigizdan tikilgan kuloh va bo‘z to‘ndan bo‘lak bu dunyo boyligidan hech vaqosi yo‘q edi [Samarqandiy D. 10: 257–258].

O‘tmishda darveshlikning maqomi yuksak bo‘lgan. Chunki darveshlik – Muhammad alayhissalomdan meros. Payg‘ambarimiz darveshlikning mukammal timsoli bo‘libgina qolmay, darveshlarni “Olohning do‘stlari”, deb e‘zozlaganlar. Darveshlikning ulug‘lanishiga xuddi shu – uning Muhammad alayhissalomga, aziz-avliyolarga, komil insonlarga nisbati borligi sabab. Darvesh dunyo qulligidan qutulgan haqiqiy hur inson, Haqni tanigan haqshunos, qalbi ilohiy fayzga kon Haq oshig‘i, qanoat mulkining podshohi, farog‘at go‘shasining sokini, ma‘rifat ahlining peshvosi, ma‘naviyat mulkining sultoni, jamiyatning eng mo‘tabar, eng aziz kishisi, Haq va xalq muqobilida turgan najib zot ekanligi jihatidan komil inson timsoli hisoblanadi. Tasavvuf istilohida ham darvesh izlovchi, istovchi ma‘nosini bildirib, so‘fiy, faqir, oshiq, orif, sohibdil, sohibasror, sohibnazar kabi o‘zini Haqqa

bag‘ishlagan kishilarning timsoli bo‘lib keladi. Ayni jihatdan mana bu bayt Nosir Buxoriyning hayotiy a‘moli bo‘lgan deyish mumkin:

*Darveshro, ki mulki qanoat musallam ast,*

*Darvesh nom doradu sultoni olam ast* [Buxoriy N. 3:7].

“Qanoat mulkining sohibi bo‘lgan darvesh aslida olamning sultonidir”.

Abdurahmon Jomiy ham “Bahoriston”da Nosir Buxoriyning Movarounnahrda bo‘lib, she‘rlarida tasavvuf ruhi mavjudligini qayd etib o‘tgan edi [Jomiy A. 5:157–158]. Amin Ahmad Roziy “Haft iqlim” (“Yetti iqlim”) tazkirasida uni “ilohiy olamning olihimmatlaridan edi” deb ta’riflasa, Taqiuddin Koziruniy “Arafot ul-oshiqin” (“Oshiqlar arafoti”) asarida “she‘riyat daryosining gavhari”, komil darvesh bo‘lib, hol sohibi edi deb lutf etadi. “Majmo‘ai si shoir” (“O‘ttiz shoir majmuasi”)da u hatto malik ush-shuaro rutbasi bilan tilga olinadi [Buxoriy N. 3:5–9]. Alisher Navoiy esa “Mahbub ul-qulub” asarida uni she‘rlarida majoziy yo‘nalish ustun bo‘lgan shoirlar jumlasiga kiritadi [Navoiy A. 7:9,464]. Holbuki, shoirning o‘zi maqtalaridan birida she‘rlari boshdan-oyoq orif zotning pandu o‘gitlaridan iborat ekanligini ta’kidlab, ayni shu jihatdan ularning do‘st, ya’ni Haq taolo tomonidan qabul bo‘lishidan umid qilgan edi:

*Nosir, agarchi sar ba sar she‘ri tu pandi orif ast,*

*Do‘st qabul mekunad z-on, ki azimu qobil ast* [Buxoriy N. 3:275].

Aslida haqiqiy ishq tarannumi ham majoziy muhabbat tasviridan xoli emas. S.Qurbonovning yozishicha ham, uning “ijodida dunyo go‘zalligi ilohiy husnning in‘ikosi yoki soyasi sifatida talqin etiladi” va u “vahdat ul-vujud” falsafiy oqimi pozitsiyasida mahkam turadi. Uning uchun olam va odam, ya’ni ruh va jism, vujud va ma’ni birgadir” [Qurbonov S. 12:20].

Vahdat ul-vujud – borliqning yagonaligi. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, butun mavjudotni Haq taoloning vujudi, ya’ni jumla olamni kull (Xudo)ning juzlari deb bilish va undan boshqa barcha narsani Uning ko‘rinishlari deb hisoblash.

Vahdat ul-vujud dunyo bu – Xudo demakdir, ya’ni butun borliq yagona ilohiy javhardan iborat. Bu ta’limotga ko‘ra, butun borliq Ollohning nuri. jilvasidan iborat ekan, o‘z-o‘zidan U barcha kamoli, jamoli va qudratini borliqda namoyon etadi. Olam va odam ilohiy nur ta’sirida harakatlanadi.

Ma’lumki, tasavvuf shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat kabi to‘rt bosqichdan iborat. Islomiy ilmlarni mukammal o‘zlashtirish bilan Nosir Buxoriy ilk bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Darveshlik yo‘lini tutish orqali tariqatni – tasavvuf amaliyotini ham ado etdi. Riyozat chekish natijasida Haq ma’rifatiga yetib, haqiqat sirlarini ham kashf etdi deyish mumkin. Shoirning maqtalaridan birida “Bulbul qafasni sindirib, ozodlikka chiqqaniday, Nosir ham tan zindonidan ruh gulistoniga uchib chiqdi”, – deb yozishi bejiz emas:

*Nosir zi habsi tan ba gulistoni ro‘h shud,*

*Bishkast andaleb qafasrovu boz rast* [Buxoroiy N. 3:373].

Boshqa bir baytida esa “Haqiqiy ishq maqomiga yuksalsang, majoziy ishq ortingda qolib ketadi – haqiqat olamida majozga yo‘l bo‘lsin!” – deb yozadi:

*Ishqat, ki shud haqiqi, dur ast az majozi,*

*Dar olami haqiqat xud kay majoz boshad* [Buxoroiy N. 3:67].

She‘rlarining asosan ilohiy ishq tarannumidan iborat ekanligidan kelib chiqib, uni mutasavvif shoirlar sirasiga kiritisa bo‘ladi.

Nosir Buxoriy she‘rlarida haqiqiy mahbubaning ta‘rif-tavsifi; har ikki dunyoda husnda unga teng keladigan yo‘qligi; bu dunyo ma‘shuqaning beqiyos ko‘rkinining ko‘zgusi ekanligi; mahbubaning pari kabi bir ko‘rinish berganicha g‘oyib bo‘lganiyu (irfoniy she‘riyatda ma‘shuqaning pari timsolida keng tasvirlanishi shundan), diydorini ko‘rsatishni va‘da qilgan bo‘lsa-da, va‘dasiga vafo qilmayotgani; yor jamolini ko‘rsatsa, do‘zaxning jannatdan afzalligiyu bu diydorsiz jannatning do‘zaxdan battarligi; oshiqning azalda ma‘shuqni bir ko‘rib, uning ishqiy mayidan mast bo‘lganiyu bir umr uning xumori bilan sarxush yurishi; ko‘ngliga ishq dog‘i tushganiyu bu dog‘ uni oqibat adoyi tamom qilishi; ishq savdoyilik o‘sha yaratilish kunidayoq oshiqning qismatiga aylangani; ma‘shuqning ishi nozu oshiqning ishi niyozligi; oshiqning yana bir bor ma‘shuqa diydorini ko‘rish orzusida yashashi kabi motivlar asosiy o‘rin tutadi.

Ma‘lumki, tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra Olam ham, Odam ham ishq tufayli yaralgan, ishq tufayli barqaror va bir kuni adam sari yuz tutsa, bunga ham ishq sabab. Zero, ular Ollohdan vujudga kelgan – ajralgan edi va yana borib Ollohga qo‘shiladi, unga singib, bir butun bo‘lib ketadi. Bandaning Olloh sari sayri ishq tufayli amalga oshganligidan tasavvufda ishq kamolot kaliti hisoblanadi. Shuning uchun ham Jaloliddin Rumi o‘z ruboiylaridan birida: “Meni ona emas, ishq tuqqan!” – degan edi:

*Ishq ul – toki xalq uchun saodat bo‘lsin!*

*Ishq ul – bu saodat to qiyomat bo‘lsin!*

*Ul ishq meni tug‘di aslida – ona emas,*

*Ul onaga ming tahsinu rahmat bo‘lsin!* [Donishmandlar tuhfası. 4:185].

Nosir Buxoriy ham mana bu baytida “Mening ota-onam ishq muhabbatdir – mening naslu nasabim paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lgan”, – deb lutf etadi:

*Padaru modari man ishq muhabbat budast,*

*Der vaqt ast, ki aslu nasabam paydo shud* [Buxoroiy N. 3:88].

Mutasavvif shoir she‘rlarida bir qator irfoniy istilohlarning nazmiy ta‘rifiga ham duch kelamiz. Jumladan, quyidagi baytida jannat aslida yor visoliyu jahannam

esa uning hijronidir deb tasavvuf she’riyatidagi mazkur tushunchalarga oydinlik kiritadi:

*Digar az Nosir hadisi jannatu do‘zax mapurs,*

*Do‘zaxi mo hajri yor astu visolash jannat ast* [Buxoroiy N. 3:286].

So‘fiylarning maqsadi diydor bo‘lganligi uchun agar jannatda Oллоh jamolini ko‘rsatmasa, uning do‘zaxdan farqi yo‘q, aksincha, do‘zaxda ilohiy husn namoyon bo‘lsa, u jannatdan afzal.

*Man ba jannat meravam az bahri didori shumo,*

*Az hama olam maro maqsud ro‘i tust, bas* [Buxoroiy N. 3:263].

“Men jannatga sening diydoringni ko‘rish uchungina boraman, chunki men uchun har ikki dunyodan maqsad – sening jamolingni ko‘rishdir”.

Atoiy ham bir baytida oshiqlar mazhabida jannat bog‘iyu kavсарu to‘bidan murod visol davronidir deb yozgan edi:

*Bog‘u bihishtu kavсарu to‘biki, derlar el,*

*Ushshoq mazhabinda zamoni visol erur* [Buxoroiy N. 3:95].

Boshqa bir baytida esa Nosir Buxoriy tasavvufdagi murakkab va chalkash istilohlar juftligidan iborat bo‘lgan kufр va din tazodini izohlab o‘tadi:

*Zulfi tu dini ravshani mo tira mekunad,*

*Mo‘i tu kufri mutlaqu ro‘i tu dini most* [Buxoroiy N. 3:274].

“Ey yor, sening qora zulfing yorug‘ dinimizga soya soladi, zero sening soching kufру yuzing dindir”.

Irfoniy she’riyatda ma’shuqa sochi qoraligi bois kufрга, yuzi yorug‘ligi jihatidan iymonga nisbat beriladi.

*Ro‘i tuvу zulfhoi darham,*

*Jam‘ omada kufру din bo ham* [Buxoroiy N. 3:175].

Yana bir baytida oshiqlik va butparastlik aslida bir narsa bo‘lib, faqat ikki xil nom bilan yuritiladi deb lutf etadi:

*Oshiqiyu butparasti, ey pisar,*

*Har du yak chizandu nomi digarest* [Buxoroiy N. 3:300].

Ma’shuqa but bo‘lganda oshiq butparast bo‘ladi.

Tasavvuf ahli qarashiga ko‘ra, ishqdan boshqasi kofirligu sidqu ixlossiz sajda butparastlikdir:

*Har chi na ishq ast, hama kofarist,*

*Sajda, ki be sidq kuni, butgarist* [Buxoroiy N. 3:272].

Lohijyning aytishicha, but, zunnor, noqus, tarsolik – bularning barchasi botil dinlarni tark etish hisoblanadi. Dunyoviy bog‘liqliklar, maqomlar, kibru g‘urur, xudbinlikdan qutulish ham ko‘zda tutiladi. Zero, but, zunnor va tarsolikdan iymon hosil bo‘ladi [Sajjodiy S. 9:757–758]. Chunki tasavvuf istilohida but – ishq va

vahdat ramzi, ma’shuq timsoli bo‘lsa, tarso (nasroniy) – nafsni ammorani mahv etib, nafsni hamidaga erishgan orif inson, dunyodan etak silkib, ilohiy ishqqa g‘arq bo‘lgan kishi.

Tasavvufda kofir – Haqni tan olmagan, uni rad etgan emas, balki u harom qilgan dunyoni, uning ne‘matu ishratlarini sevgan kishi. Bu ta’limotda kofir ikki ma’noda ishlatiladi: birinchisi – Haqqa kofirlik, ikkinchisi – dunyoga nisbatan kofirlik, ya’ni dunyo ne‘matu ishratlari, nafs hirsu havaslaridan yuz o‘girish. Shunga muvofiq, ishqning kofiri bo‘lishi – so‘fiy nazdida haqiqiy iymonga ega bo‘lish, chunki farqlar, ko‘plik olami, mavhumlik pardasini ko‘tarish, dunyoni tark etish orqali vahdatga yetiladi [Komilov N. 6:257–258].

Ramzu timsollarga asoslangan irfoniy she’riyatda obi hayot chashmasi ham aslida ma’shuqaning oshiqqa jon ato etadigan shirin labini tamsil etib keladi.

*Xabari chashmai Xizr az dahanat pursidam,*

*Guft agar metalabi, dar labi shirini man ast* [Buxoroiy N. 3:302].

Ma’shuqaning og‘zini ham obi hayot chashmasiga nisbat beradilar. Bunda ko‘pincha ma’shuqaning og‘zi – obi hayot chashmasini, jonbaxsh labining suvi – obi hayotning o‘zini, lablari ustidagi mayin tuklari – xati esa obi hayot chashmasi tegrasini tutgan maysaga tashbeh qilinadi.

Ma’lumki, sevimli jigarbandi Yusuf alayhissalomdan ajralgan Ya’qub payg‘ambar yo‘l bo‘yida bir kulba tiklab, o‘g‘lining yo‘liga ko‘z tutib yig‘layverganidan ko‘r bo‘lib qoladi. Taqdirning ming bir sinovlarini boshidan kechirib, nihoyat Misr sultoniga aylangan farzandi o‘gay akasi Yahudo bilan berib yuborgan ko‘ylakdan yo‘qotgan o‘g‘lining isini tuyib, uni ko‘zlariga surganida esa ko‘ra boshlaydi. Tasavvuf she’riyatida ayni voqeadan ham shoirlar o‘zlarining badiiy maqsadlari yo‘lida foydalanib, Yaqub payg‘ambarning so‘qirga aylanishini Yusufdan boshqasini ko‘rmasligi ramzi o‘laroq talqin qilishadi.

*Ya’qubvor dida zi g‘ayri tu bastaam,*

*Chashmi charog‘i kulbai ehzoni mo tui* [Buxoroiy N. 3:355].

“Ya’qub kabi o‘zingdan o‘zgasidan ko‘zimni yumdim, chunki bizning qayg‘u zulmati ostida qolgan kulbamizning porloq chirog‘i sensan”.

Ma’shuq diydoridan judo oshiqning ko‘zlari ko‘r bo‘lishiyu, yuzini ko‘rsa, ochilishi ham bir ramz.

Kulbai ehzon – g‘am uyi, qayg‘u kulbasi, hasratxona. Ya’qub alayhissalom sevimli jigarbandi Yusuf yo‘lida bino qilgan o‘sha motam uyi kulbai ehzon, bayt ul-ahzon nomlari bilan mashhur. Mumtoz adabiyotda so‘ngsiz dardu g‘amda, chorasiz ahvolda qolgan kishining uyini, hayotini, dunyoni bayt ul-ahzonga nisbat berish bir an’ana tusini olgan.

O‘z navbatida, Yusuf, ya’ni sevimli yor ko‘ylagining o‘zi ham visoldan umidvorlik va uning bir qadar yaqinlashganligi ma’nosida qo‘llaniladi.

Nosir Buxoriy ijodida surat va ma’no, ganj va vayrona, sham va parvona. shoh va gado, qatra va dengiz, zarra va quyosh, jon va jonon kabi kabi bir-birini taqozo qiladigan timsollar juftligiga ham keng murojaat qilinadi. Shulardan biri surat va ma’no hisoblanadi. Jumladan quyidagi baytida “Yor ko‘zimdan pinhon bo‘lgani bilan ko‘nglimda jodir – suratda uzoq bo‘lgani bilan ma’noda men bilan birga”, – deb yozadi:

*Yor agar az dida pinhon ast, paydo dar dil ast,*

*Gar ba surat mekunad duri, ba ma’no vosil ast* [Buxoroiy N. 3:271].

Mumtoz she’riyatdagi an’anaga ko‘ra ishq – xazina, oshiq ko‘ngli – vayrona. Ganj vayronada bo‘ladi, ishq siniq ko‘ngillarda. Ko‘ngil va vayrona, ishq va ganj aro o‘zaro nisbat shunda. Ganj va vayrona juftligi Nosir Buxoriy ijodida ham faol. Jumladan, quyidagi baytida “Vayrona ko‘nglim ishq ganji tufayli oboddir, chunki xarobazor ko‘nglim obodligi unda ishqning ganjining borligidandir”, – deb lutf etadi:

*Xarobai dilam az ganji ishq obod ast,*

*Ki ganji ishq tu dorad dili xarobobod* [Buxoroiy N. 3:81].

Irfoniy she’riyatda keng ma’noda dunyo – vayronayu, Xudo – xazina ma’nosidagi talqinlar ham uchraydi. Jumladan, maxfiy xazina deganda Haq taolo ko‘zda tutiladi.

Aql faqat dunyo tilsimlarini ochish va muammolarini hal qilishga qodir – unga g‘ayb olamiga yo‘l yo‘q. G‘ayb asrorini faqat ishqqa limmo-lim ko‘ngil orqali his qilish mumkin. Shuning uchun ham ishq oldida aql ojiz. Ishq – dono muallim bo‘lsa, aql – nodon talaba. Bu tasavvufiy haqiqatni Kamol Xo‘jandiy obrazli yo‘sinda: “Ishq libosi ko‘ngilga moslab bichilgan – u aqlga to‘g‘ri kelmaydi”, – deb ifodalagan edi:

*Xil’ati ishq nest loiqi aql,*

*K-in qabo bar qadi dil omad rost* [Xujandiy K. 11:297].

Aql va ishq, aql va ko‘ngil tazodining turli talqinlarini Nosir Buxoriy ijodida ham ko‘ramiz. Jumladan, bir baytida shunday yozadi:

*Dar borgahi ishq xiradro nabuvad roh,*

*K-on majlisi xos ast, rahi om naboshad* [Buxoroiy N. 3:391].

“Aqlga ishq bazmiga yo‘l yo‘q – bu xoslar davrasi bo‘lib, oddiy odamlar unga yo‘l topolmaydi”.

Boshqa bir baytida esa “Ishqni tanishim bilan oqillikni rad etdim, chunki ishqqa ishonamanu aqldan shubhalanaman”, – deya yana bir irfoniy haqiqatni nazm rishtasiga tizadi:

*Iqrori ishq gardamu inkori oqili,*

*K-az ishq dar yaqinamu az aql dar gumon* [Buxoroiy N. 3:224].

Zarra va quyosh, qatra va dengiz timsollari asosidagi baytlarida esa zarraning quyoshga, qatraning dengizga singib ketishi haqida fikr yuritadi:

*Qatrave ovora dar daryoi rahmat mefitad,*

*Zarrai sargashta dar xurshedi ravshan merasad* [Buxoroiy N. 3:138].

Tasavvuf she’riyatida eng ko‘p mazammat etiladigan obrazlardan biri zohid hisoblanadi. O‘tmish shoirlari zohidni qalqon qilib olib, aslida johil mutaassiblarning jirkanch basharalarini fosh qilganlar. Nosir Buxoroiy ham zohidni takabbur, xudbin, johil, quruq, pashsha kabi ko‘pdan-ko‘p salbiy sifatlar bilan fosh etadi. So‘fiylar nazdida zohidlar ishqu irfondan bexabar bo‘lib, ularning maqsadi taqvo bilan oxirat mag‘firatini qozonish, Qur’onda va’da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish. So‘fiylarning har ikki dunyodan murodi Xudoning o‘zi, uning diydori bo‘lganligi uchun zohidlarning bu ishini tamagirlik deb hisoblaydilar va ularni tanqid qiladilar. Shoir ham quyidagi baytida “Ey zohid, bizning ko‘zamizni sindirib, behuda zahmat chekding, chunki men shunday bir maydan mastmanki, u qadahu ko‘zga sig‘maydi”, – deb bu toifaning ustidan kuladi:

*Turo zahmat shud, ey zohid, ki bishkasti sabo‘i mo,*

*Ki man z-on boda sarmastam, ki dar sog‘ar nameg‘unjad* [Buxoroiy N. 3:143].

“Xazoyin ul-maoniy”ning ochqichi bo‘lgan ilk g‘azalidayoq Alisher Navoiy zohidga kinoya qilib, so‘fiylar istilohidagi jom bilan may sen o‘ylagan narsa emas, binobarin bilmay turib mayxona ahlini inkor etma degan edi:

*Sen gumon qilg‘andan o‘zga jomu may mavjud erur,*

*Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido* [Navoiy A. 7:1,25].

Ya’ni, shoir aytayaptiki: “Ey zohid, sen o‘zingga bino qo‘yib, hamma narsani zohiriga qarab baho beraverma, botiniga – mohiyatiga ham boq. Shunday qilsang, Xudoga quruq toat-ibodatdan tashqari, unga muhabbat ham va bu muhabbat sohibi bo‘lgan hassos ko‘ngillar ham, ana shunday Haq oshiqlari davrasi ham mavjudligini bilasan. Ya’ni sen mayu jomu mayxona so‘zlarini o‘z ma’nosida yuzaki tushunib, noto‘g‘ri xayolga borma, majoziy ma’noda may – ma’rifat, jom – ko‘ngil, mayxona – ilohiy ishq oshiqlari davrasi.

Ne-ne ulug‘ shayxu so‘fiylar ham iymoni butligidan shubhalangani manbalarda yozib qoldirilgan. Chunonchi, Alisher Navoiyning “Hayrati ul-abror” dostonida o‘z iymoni butligidan gumonsiragan Boyazid Bistomiyning hamisha qayg‘uli qiyofada yurishi haqidagi rivoyat keltiriladi [Navoiy A. 7:6,93–94]. Butun umr toat-ibodatdan bosh ko‘tarmagan, birovning haqini yemagan, aksincha, pokdomonligi, ezgu axloqi bilan zamondoshlariga ibrat bo‘lgan mashhur tariqat shayxi, oriflar sultoni o‘limi



oldidan yig‘lab, “Toatlar orasida qolganmen, bilmasmekim, Olloh alarni qabul qilgaymi yo yo‘q!”, – degan ekan.

Zohidlar esa toat-ibodatlariga mag‘rur bo‘lib, o‘zlari uchun go‘yo jannatu kavsarni naqd qilib qo‘yadilar. Shuning uchun ham so‘fiylar zohidlarning bu xomtamaliklari ustidan kuladilar. Nosir Buxoriyning “Zohidning ertangi savdosi agar nasiya bo‘lsa, men ishqing tufayli bugunning o‘zida ertangi naqd foydani topdim” mazmunidagi quyidagi bayti ayni tasavvufiy haqiqatdan bahs etadi:

*Zohid agar ba fardo savdoi nasya dorad,*

*Man yoftam zi ishqat imro ‘z naqdi fardo* [Buxoriy N. 3:238].

Zohid kabi faqih, muhtasib, qosid, nosih, tabib, voiz, raqib kabi obrazlar ham tasavvuf she‘riyatining asosiy qahramonlaridan hisoblanadi. Bu obrazlarning har biri muayyan badiiy vazifani bajaradi. Aytaylik, irfoniy she‘riyatda raqib obrazining mundarijasi nihoyatda keng bo‘lib, u dunyo, zamon, falak, taqdir, jism, nafs ma‘nolarida ham keladi. Tabib barcha xastaliklarni davolaganiga qaramay, ishq dardiga ojiz kishini tamsil etib keladi. Jumladan, quyidagi baytida ko‘ngliga murojaat qilib, tabibdan o‘z za‘figa chora izlamasligi, chunki u butunlay boshqa dard bilan og‘riganligini ta‘kidlaydi:

*Chorai Nosir majo ‘zinhor, ey dil, az tabib,*

*Z-onk mo ranjur bar bo ‘i davoi digarem* [Buxoriy N. 3:188].

Ma‘lum bo‘ladiki, Nosir Buxoriy hayotda so‘fiylikni amalda yashab, ijodda irfoniy istiloh va timsollar vositasida tasavvufiy g‘oya va qarashlarni badiiy talqin qilgan. Binobarin, shoir asarlarini tasavvuf ta‘limotining badiiy in‘ikosi jihatidan o‘rganish mumtoz so‘z san‘ati namunalarni butun mag‘iz-mohiyati bilan tushunishda muhim o‘rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ali Safiy F. Latofatnoma (Forschadan S.Xoja tarj.). – T.: Adabiyot va san‘at, 1996.
2. Atoyi. Jondan aziz jonona (Nashrga tayyorlovchi: E.Ochilov). – T.: “Sharq”, 2011.
3. Buxoriy N. Muntaxabot (Murattib: A.Habibov). – D.: Adib, 1996.
4. Donishmandlar tuhfasi (Ruboiylar. Forsiydan E.Ochilov tarj.). – T.: “O‘zbekiston”, 2009.
5. Jomiy A. Bahoriston (Tahiyagari matn: A.Afsahzod). – D.: Adib, 2014.
6. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Yozuvchi, 1996.
7. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami, X jildlik. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
8. Rabg‘uziy N.B. Qisasi Rabg‘uziy, 2-kitob (Nashrga tayyorlovchilar: E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyev). – T.: Yozuvchi, 1991.
9. Sajjodiy S.J. Farhangi istilohot va ta‘biroti irfoniy. – Tehron, 1379 (h.-sh.).

10. Samarqandiy D. Tazkiratu-sh-shuaro (Tahiyai M.Nurulloeva). – X.: Noshir, 2015.
11. Xujandiy K. Devon (Tas’hehi F.Nasriddinov). J.2. – X.: Noshir, 2020.
12. Qurbonov S. Zamonasining fozil farzandi \\\ Sino, 2007, № 25.